QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASI BERUNIY RAYONÍ HÁKIMINIŃ SH E SH I M I

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI BERUNIY TUMANI HOKIMINING Q A R O R I

2024-yil 7-noyabr 265-13-182-Q/24 Beruniy tuman hokimligi

Beruniy tumanida ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini 2025-yil uchun band qilib qo‘yishni belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oilalarni mustahkamlash va xotin qizlarning faolligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2023-yil 21-dekabrdagi PQ-401-son qarorining 8.2-bandi, O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining 2019-yil 10-maydagi 19-2019-B-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 3163) ijrosini ta’minlash maqsadida tumanda Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shahslarni ishg a joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash yuzasidan berilgan taklifla rni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonuni (Qonun hujjatlari malumotlari milliy bazasi 20.10.2020-y. 03/20/642/1396-son) ning 39-moddasi, “ Nogironligi b‘olgan shahslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonuni (Qonun hujjatlari malumotlari milliy bazasi 15.10.2020-y. 03/20/641/1389 -son) ning 14, 43-moddalariga hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shahslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni 6-moddasiga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Band qilinishi kerak bo‘lgan ish o‘rinlari sonini va ularga qo‘yiladigan talablarni belgilash uchun maxsus komissiya tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar toifalari uchun ish o‘rinlarini band qilishi lozim bo‘lgan tumandagi korxona, tashkilot va muassasalar ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Mazkur qarorning 2-bandida koʻrsatilgan korxonalar, tashkilotlar va muassasalar ijtimoiy himoyaga muhtoj, ish topishda qiynaladigan va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlashishga qodir boʻlmagan shaxslar uchun quyidagi toifalar bo'yicha ish oʻrinlari sonini band qilib qoʻyishni taʼminlansin:

- oʻn toʻrt yoshgacha va nogironligi boʻlgan bolalari bor yolgʻiz ota-ona va koʻp bolali oilalar uchun 36,8 % (32 kishi);

- umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi muassasalarini tamomlagan yoshlarga, shuningdek, oliy taʼlim muassasalarining davlat grantlari boʻyicha taʼlim olgan bitiruvchilari uchun 50,6 % (44 kishi);

- safarbarlik chaqiruv zahirasida xizmatni oʻtagan va Oʻzbekiston Respublikasi Qurol li Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan boʻshatilgan shaxslar uchun 2,3% (2 kishi);

- nogironligi boʻlgan shaxslar uchun 4,6% (4 kishi);

- pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun 1,1% (1 kishi);

- jazoni oʻtash muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga koʻra tibbiy yoʻsindagi majburlov choralariga tortilgan shaxslar uchun 2,3 % (2 kishi);

- Oilaviy (maishiy) zoʻrovonlik natijasida jabrlanganlar uchun 2,3% (2 kishi);

4. Korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlariga ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ish bilan taʼminlash uchun 2024-yil yakunlashidan 10 kun oldin kvota ish joylari umumiy miqdorining kamida 25 foizi uchun, 2025-yilning 10-aprelidan kechikmay ish joylarining qolgan 75 foizini barpo etish (ajratish yoki band qilib qoʻyish) toʻgʻrisidagi, yaʼni har bir kvota toifasi boʻyicha ish oʻrinlari band qilib qoʻyiladigan kasblar va lavozimlar, mutaxassisliklar kesimidagi maʼlumotlarni va qaror boʻyicha chiqarilgan buyruq nusxalarini tuman Aholi bandligiga koʻmaklashish markaziga taqdim etish vazifasi yuklatilsin.

5. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish oʻrinlarini band qilib qoʻyish toʻgʻrisidagi Nizom”ga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish qidirishda qiynalayotgan shaxslar uchun band qilib qoʻyiladigan ish oʻrinlarini tuman hokimi tomonidan belgilangan miqdordan ortiqcha tashkil etgan tashkilotlar ushbu ish oʻrinlarini tashkil etishga sarflangan mablagʻlarining bir qismini tuman Aholi bandligiga koʻmaklashish markazi bilan tuzilgan shartnoma asosida Bandlikka koʻmaklashish jamgʻarmasi mablagʻlari hisobidan qoplash huquqiga ega ekanliklari inobatga olinsin.

6. Muhtojlar uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha tuman hokimining ushbu qarori bajarilmaganda, shuningdek, ularning ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilotlarning mansabdor shaxslariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlik belgilanadi.

7. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining 2019-yil 10-maydagi 19-2019-B-son buyrug‘i asosida Ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam sondan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida haq to‘lash to‘g‘risida subsidiyalar ajratilishi belgilansin.

8. Tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi (T.Tangirbergenov) bir hafta muddatda mazkur qarorni tegishli korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlariga yetkazsin hamda uning bajarilishi ustidan qat’iy nazoratini ta’minlasin.

9. Tuman hokimining 2023 yil 6-noyabrdagi 148-13-182-Q/23-sonli “Beruniy tumanida ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish to‘g‘risida”gi qarori (“Xalq minbari” gazetasi, 10.11.2023-y, №23(6464)-son) 2024-yil 31-dekabrdan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

10. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

11. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari U.Matirzaev zimmasiga yuklatilsin.

Beruniy tumani hokimi **I.Xidirov**

Beruniy tuman hokimining
2024-yil 7-noyabrdagi
265-13-182-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Band qilinishi kerak bo‘lgan ish o‘rinlari sonini va ularga qo‘yiladigan talablarni belgilash uchun maxsus komissiya

TARKIBI

T/R	F.I.Sh	Lavozimi
1	U.Matirzaev	Tuman xokimining moliya-iqsodiyot va kamg‘alikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari-Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘alikni qisqastirish bo‘limi boshlig‘i, komissiya raisi
2	T.Tangirbergenov	Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i, komissiya raisi o‘rinbosari
A’zolari		
3	I.Atabaev	Budjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi tuman bo‘limi boshlig‘i
4	D.Palvanov	Tuman Tibbiyot birlashmasi boshlig‘i
5	Vvb.T.Kazakov	Tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi boshlig‘i
6	M.Begimov	Ijtimoiy moslashuv markazi tuman bo‘limi boshlig‘i
7	I.Sharipova	Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limining aholiga hizmat ko‘rsatish shu’basi, komissiya kotibi

Beruniy tuman hokimining
2024-yil 7-noyabrdagi
265-13-182-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Tumanda ijtimoiy himoyaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar toifalari uchun ish o‘rinlarini band qilishi lozim bo‘lgan korxona, tashkilot va muassasalar ro‘yxati

№	Tuman (shahar) nomi	Ish o‘rnini zahiralash belgilangan korxona tashkilot nomi	Kvota ish o‘rinlarini yaratadigan korxonalarda ishlovchilar soni	Kelgusi yilga zahiraga qo‘yish taklif etilayotgan ish o‘rinlari soni	Shundan:						
					A	B	D	E	F	G	H
1	Beruniy tumani	Beruniy tuman tibbiyot birlashmasi	2244	10	4	4		2			
2	Beruniy tumani	Beruniy tuman ma'daniyat bo'limi	81	1	1						
3	Beruniy tumani	"Beruniy tumani 2-sonli kasp-hunar maktabi"	122	1	1						
4	Beruniy tumani	"Beruniy tumani 1-son kasb hunar maktabi"	113	1		1					
5	Beruniy tumani	QIRG`OQ HIMOYALOVCHI DAMBALAR VA O`ZAN ROSTLOVCHI INSHOOTLAR BOSHQARMASI	117	2			1		1		
6	Beruniy tumani	Beruniy davlat o'rmon xo'jaligi	36	1		1					
7	Beruniy tumani	QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI XUZURIDAGI BERUNIY NASOS STANSIYALARI VA ENERGETIKA BOSHQARMASI	435	4	1		1	1		1	
8	Beruniy tumani	Beruniy tumani obodonlashtirish boshqarmasi	208	4				1		1	2
9	Beruniy tumani	Beruniy tumani irrigatsiya bo'limi	121	2	1	1					
10	Beruniy tumani	"MUSA-BAXSHI" bolalar musiqalik maktabi	62	1		1					
11	Beruniy tumani	1 - sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	86	1	1						
12	Beruniy tumani	2 - sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	69	1	1						
13	Beruniy tumani	3 - sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	67	1	1						
14	Beruniy tumani	4 - sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	52	1		1					

15	Beruniy tumani	5 -sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	62	1		1						
16	Beruniy tumani	6 - sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	102	1		1						
17	Beruniy tumani	7 - sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	61	1	1							
18	Beruniy tumani	8 -sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	80	1	1							
19	Beruniy tumani	9 -sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	65	1	1							
20	Beruniy tumani	10 - sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	58	1	1							
21	Beruniy tumani	11 -sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	76	1		1						
22	Beruniy tumani	13 - sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	86	1		1						
23	Beruniy tumani	14 - sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	66	1		1						
24	Beruniy tumani	15 -sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	90	1		1						
25	Beruniy tumani	16 - sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	75	1		1						
26	Beruniy tumani	17 - sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	56	1		1						
27	Beruniy tumani	20 - sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	44	1		1						
28	Beruniy tumani	21 -sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	45	1		1						
29	Beruniy tumani	22-sonli umumiy o'rta ta'lim maktab	63	1	1							
30	Beruniy tumani	23 -sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	53	1	1							
31	Beruniy tumani	24 - sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	44	1		1						
32	Beruniy tumani	26 - sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	53	1		1						
33	Beruniy tumani	27 - sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	136	1		1						
34	Beruniy tumani	28 -sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	55	1	1							
35	Beruniy tumani	29 - sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	65	1	1							
36	Beruniy tumani	30 - sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	43	1	1							
37	Beruniy tumani	32 - sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	46	1		1						
38	Beruniy tumani	34 - sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	57	1		1						

39	Beruniy tumani	37 - sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	73	1		1					
40	Beruniy tumani	38 - sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	109	1		1					
41	Beruniy tumani	39 -sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	50	1		1					
42	Beruniy tumani	41 -sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	56	1		1					
43	Beruniy tumani	42 - sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	61	1	1						
44	Beruniy tumani	43 - sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	53	1	1						
45	Beruniy tumani	46 - sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	105	1	1						
46	Beruniy tumani	47 -sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	113	1	1						
47	Beruniy tumani	BERUNIY TUMANI XALQ TA`LIMI BO`LIMIGA QARASHLI 48-SONLI AYRIM FANLAR CHUQURLASHTIRIB O`QITILADIGAN SINFI MAVJUD UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI	117	1	1						
48	Beruniy tumani	49 - sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	120	1		1					
49	Beruniy tumani	50 - sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	105	1		1					
50	Beruniy tumani	51 - sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	74	1		1					
51	Beruniy tumani	52 - sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	101	1		1					
52	Beruniy tumani	53 - sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	71	1		1					
53	Beruniy tumani	54 - sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	49	1		1					
54	Beruniy tumani	55 - sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	69	1		1					
55	Beruniy tumani	56 - sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	48	1		1					
56	Beruniy tumani	57 - sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	73	1	1						
57	Beruniy	58- sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	89	1	1						

	tumani										
58	Beruniy tumani	59 - sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	87	1		1					
59	Beruniy tumani	60 - sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	90	1		1					
60	Beruniy tumani	61 -sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	101	1		1					
61	Beruniy tumani	62 - sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	44	1		1					
62	Beruniy tumani	63 - sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	111	1		1					
63	Beruniy tumani	64 - sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	86	1		1					
64	Beruniy tumani	BERUNIY TUMANI XALQ TA'LIMI BO'LIMIGA QARASHLI 65-SONLI AYRIM FANLAR CHUQURLASHTIRIB O'QITILADIGAN SINFI MAVJUD UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	145	1	1						
65	Beruniy tumani	66 - sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	76	1	1						
66	Beruniy tumani	67 - sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	62	1	1						
67	Beruniy tumani	69 - sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	63	1	1						
68	Beruniy tumani	70 - sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	35	1	1						
69	Beruniy tumani	71-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	42	1		1					
70	Beruniy tumani	72-sonli umumiy o'rta ta'lim maktab	43	1		1					
		Jami:	7915	87	32	44	2	4	1	2	2

Eslatma:

A) 14 yoshgacha va nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun band qilingan ish o‘rinlari soni

B) Umumiy o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun band qilingan ish o‘rinlari soni

D) Safarbarlik chaqiriq zahirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari sarflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun band qilingan ish o‘rinlari soni

E) Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun band qilingan ish o‘rinlari soni

F) Pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun band qilingan ish o‘rinlari soni

G) Jazoni ijro yetish muassalaridan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun band qilingan ish o‘rinlari soni

H) Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik natijasida jabrlanganlar uchun